

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

2019-yil yanvar-oktyabr

RAQAMLAR:


- 2019-yil yanvar-oktyabr oylarida bozor xizmatlari hajmi 2134,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 208,9 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 2553,4 ming so'mni tashkil etdi.

Innovatsion xizmatlarni joriy etish va an'anaviy xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha maqsadli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirilishi mamlakat iqtisodiyotida xizmatlar sohasining ulushini oshishiga olib keladi.


2019-yil yanvar-oktyabr oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2134,1 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 119,8 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni savdo xizmatlari (28,8 %) tashkil etadi.

2019-yil yanvar-oktyabr oylarida xizmatlar tarkibi (jami hajmga nisbatan, %)



2019-yil yanvar-oktyabr oylarida ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm



Joriy yilning yanvar-oktyabr oylarida oldingi yilning yanvar-oktyabr oyiga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga savdo xizmatlari (80,5 mlrd. so'mga), transport xizmatlari (45,4 mlrd. so'mga) va moliyaviy xizmatlar (274,6 mlrd. so'mga) hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

**2019-yil yanvar-oktyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**


	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar-jami	2134,1	119,8
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	124,9	111,6
moliyaviy xizmatlar	517,0	208,9
transport xizmatlari	365,1	102,9
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<i>342,5</i>	<i>102,4</i>
yashash va ovqatlanish xizmatlari	46,5	108,3
savdo xizmatlari	614,3	102,3
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	55,0	101,3
ta'lim sohasidagi xizmatlar	107,2	108,2
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	31,3	108,5
ljara xizmatlari	47,2	104,4
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	58,4	104,7
shaxsiy xizmatlar	52,5	101,7
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	37,3	104,0
boshqa xizmatlar	77,4	111,8

**2019-yil yanvar-oktyabr oylarida tumanlar bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Sirdaryo viloyati	2134,1	119,8
<i>shaharlar:</i>		
Guliston shahri	1149,6	134,7
Shirin shahri	27,5	109,3
Yangiyer shahri	155,1	107,2
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut tumani	89,4	109,6
Guliston tumani	66,4	108,2
Mirzaobod tumani	103,1	112,6
Oqoltin tumani	48,7	109,0
Sardoba tumani	61,5	100,0
Sayxunobod tumani	97,1	89,8
Sirdaryo tumani	253,8	108,3
Xovos tumani	81,9	109,1


Zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish, aholining ta'lim va madaniy darajasini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar doirasini kengaytirishga yordam beradi.

2019-yil yanvar-oktyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



2019-yil yanvar-oktyabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar (208,9 %), boshqa xizmatlar (111,8 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (111,6 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (108,2 %) kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

2019-yil yanvar-oktyabr oylarida
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, %




Hozirgi vaqtda savdo sohasi iste'molchilarning bozor talabini shakllantirish jarayonida faol ishtirokchi hisoblanadi. Bugungi kunda savdo xizmatlari mamlakat iqtisodiyotida ko'rsatilayotgan xizmatlar umumiy hajmining sezilarli qismini tashkil etadi. Respublikada zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda chakana savdo tarmoqlari faol rivojlanmoqda.

2019-yil yanvar-oktyabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 614,3 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 28,8 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 80,5 mlrd. so'mga oshdi.

**2019-yil yanvar-oktyabr oylarida
savdo xizmatlari tarkibi, %**



Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 70,2 % ni tashkil etdi.

Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 24,3 % ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 5,5 % ni egalladi.

Moliya-bank tizimini isloh qilish bo'yicha olib borilayotgan izchil chora-tadbirlar iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, aholi bandligini va farovonligini ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatish, jumladan "raqamli" banklar va chakana xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan bank bo'linmalarini tashkil etish uchun innovatsion bank texnologiyalarini joriy qilish, masofadan turib bank xizmatlarini ko'rsatish, to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga yordam beradi.

2019-yil yanvar-oktyabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 517,0 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 208,9 % ni tashkil etdi.


2019-yil yanvar-oktyabr oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar (92,7 %) katta salmoqqa egadir.

2019-yil yanvar-oktyabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 46,5 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 108,3 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar–oktyabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning tarkibi, %




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 91,6 % ulush bilan yetakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 8,4 % ga to'g'ri keldi.

Ta'lim sohasidagi olib borilayotgan islohotlar avvalambor insonlar ongini va fikrlash doirasini kengaytirishga hamda ma'naviyatini yuksaltirishga yordam bermoqda.

2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 107,2 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 5,0 % ni tashkil etdi.


Ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi va o'sish sur'atining taqqoslanishi



O'tgan yilning yanvar-oktyabr oyi bilan taqqoslanganda ta'lim sohasidagi xizmatlarning hajmi 23,8 mlrd. so'mga oshdi.

Sirdaryo viloyatida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqda. 2019-yil yanvar-oktyabr oylari 2553,4 ming so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 548,0 ming so'mga oshdi va o'sish sur'ati 117,7 % qayd etildi.

2019-yil yanvar-oktyabr oylarida viloyat bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar, *ming so'm*




Tuman va shaharlar o'rtasida Guliston shahri (12830,3 ming so'm) yetakchilik qilmoqda. O'tgan yilning mos davriga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati Guliston shahri bo'yicha 133,1 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga to'g'ri kelgan eng kichik hajm Boyovut (698,6 ming so'm), Xovos (868,9 ming so'm) va Guliston tumanlarida (930,9 ming so'm) kuzatildi.

2018-yil yanvar-oktyabr oylariga nisbatan, 2019-yil yanvar-oktyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Guliston shahrida (133,1 %), Mirzaobod tumanida (110,0 %) va Shirin shahrida (108,7 %) qayd etildi.

2019-yil yanvar-oktyabr oylarida tumanlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi
Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Tel: (71) 230-86-31